



MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAHALLA XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Uzakov Kaxramon Pazildinovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisda mahalla xodimlarining malakasini oshirish tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, malaka oshirishda masofaviy ta'larning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu yo'nalishda o'tkazilgan so'rovnoma tahlili bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla, onlayn, masofaviy ta'lif, malaka oshirish, normativ-huquqiy hujjatlar, so'rovnoma, respondent

"Mahalla – tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat va tarbiya qo'rg'onidir".

KIRISH

Darhaqiqat bugun fuqarolarning o'zini ozi boshqarish organlari faqatgina hududdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ijtimoiy ko'mak berish instituti emas, balki aholini barcha jabhalarda qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy faolliklarini oshirish, aholi ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, obodonlashtirish va tadbirdorlikni ommalashtirish kabi bir qator muhim masalalarni o'z zimmasiga olgan, xalqning irodasi bilan, fuqarolarning ishonchi asosida tashkil etilgan organga aylanib bormoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir nechta hujjatlari hayotga tatbiq etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldag'i "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4944-son Farmoni (17.03.2021 hujjat kuchini yo'qotgan), 2019 yil 2 apreldagi "Aholi muammolari bilan ishslashda mahalla institutining mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-son Farmoni, 2020 yil 18 fevraldag'i "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni, 2020 yil 18 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4602-son qarori, 2021 yil 18 oktabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6324-son Farmoni shular jumlasidandir.



Ushbu hujjatlarda fuqarolar yig'inining jamiyatda tutgan o'rni va nufuzini hamda yig'in xodimlarining vakolatlari bilan bir qatorda ularning mas'uliyatini oshirish ko'zda tutilgan.

Ammo mahalla sohasini rivojlantirishda tizim tuzilmalari va xodimlariga vakolat, imtiyoz berishning o'zi yetarli emasligini anglagan holda ularni sohaga oid hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga oid bilim-malakalarini ham oshirish eng dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Maqolada aynan shu masalaga to'xtalib o'tilgan.

ASOSIY QISM

Maqolaga doir ilmiy materiallarni o'rganish va tahlil qilish davomida Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolar yig'ini faoliyati, sohada amalga oshirilgan islohotlar o'rganilganligi aniqlandi.

Ammo o'rganilgan materiallarda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish xodimlarining malakasini oshirish tizimiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ayniqsa Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari faoliyatiga doir tahlillar amalga oshirilmaganligi kuzatildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari faoliyatiga doir qonun osti hujjatlari tahlil qilinib, fuqarolar yig'ini xodimlari xodimlari o'rtasida mazkur masalaga oid so'rovnama o'tkazib tahlil qilindi.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlil qilinganda mahalla instituti O'rta Osiyoda eng qadimgi tuzilmalardan ekanligi aniqlandi.

Xususan, «Avesto»da ilk jamoaviylikning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari qayd etilgan. Jumladan, nmana katta patriarchal oilani, bir necha nmanalarning birikuvi, ya'ni urug' jamoasi - visni tashkil etgan. Muayyan hududdagi qo'shni vislar birikuvidan varzana - hududiy qo'shnichilik jamoasi, ularning uyushuvidan zanti - qabila yuzaga kelgan.

Ammo "mahalla" atamasi birinchi marta Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu Lug'otit turk» asarida tilga olingan bo'lib, ushbu tushuncha arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, "joy, o'rin, makon" degan ma'nolarni anglatishi "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida ifodalangan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjudligi va ularning tashkiliy-maqomiy vazifalari xususida mulohazalar mavjud.

IX asr tarixchisi Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida Buxoroi Sharifda bundan 1.100 yil oldin ham mahalla, guzarlar mavjudligi qayd etiladi. Leonid Levitin ta'kidlaganidek, «Hozirgi O'zbekiston hududida bo'lgan shaharlardagi mahallalarning ayrim mavzelari o'sha paytlardayoq shu qadar katta ediki, ularni shaharning mustaqil qismi desa bo'ladi».



Shuningdek, zamondosh olimlardan Sh.Maxmudbekov, M.G'ulomov, A.Ibroximov va L.Levitinlar mahalla mavzusida chuqur izlanishlar olib borishgan.

Ushbu izlanishlarning aksariyati yurtimizda mahalla tarixi va odamlarning jamoa bo'lib yashashlari, oqsoqollar boshqaruvi masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Ushbu ilmiy ish (maqola) yuqoridagi olimlarning izlanishlaridan farqli ravishda fuqarolar yig'ini xodimlarining malakasini oshirish tizimini tahlil qilish hamda buning asosida taklif va xulosalar berishga e'tibor qaratilgan.

Shu sababdan ham ilmiy ish doirasida malaka oshirish tizimiga doir adabiyotlar ham tahlil qilindi.

Jumladan, J. Yo'ldoshev, R. Safarova va Sh.Mardonovlarning ilmiy izlanishlari o'r ganilganda ularda asosan pedagog kadrlarning malakasini oshirish masalasiga asosiy urg'u berilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish tizimi bugungi kunda yetarlicha tadbiq etilmaganligi ma'lum bo'lmoqda.

Maqoladagi natijalarni olish uchun bir nechta usullardan foydalanildi. Avvalo adabiyotlar tahlili metodidan foydalanilib, mavzuga doir materiallar o'r ganildi.

Bundan tashqari sohaga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlili amalga oshirildi. Bu orqali mamlakatimizda sohaga doir belgilangan normalar, yaratilgan imkoniyatlar va huquqiy munosabatlar o'r ganildi.

Shuningdek, fuqarolar yig'ini xodimlarining fikr va mulohazalarini o'r ganish maqsadida ular o'rtasida ijtimoiy so'rov nomasi o'tkazilib, tahlil qilindi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mahalla sohasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda 2013 yil 10 oktabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2050-sonli qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida davlat ta'lim muassasasi shaklida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra respublikaning barcha hududlarida jami 14 ta o'quv kurslari 2014 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 dekabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirishning tashkiliy tuzilmasi va tizimi to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish bu fuqarolar yig'ini xodimlarining bilim va ko'nigmalarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z



navbatida mahalla sohasida olib borilayotgan islohotlar samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu sababdan ham davlat rahbari 2020 yil 18 fevraldag'i "Jamiyatda ijtimoiyma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sod Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birgalikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi alohida o'quv kurslari tashkil etish bo'yicha takliflarni kiritish vazifasini yukladi.

Respondentlardan FO'O'BO xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari to'g'risidagi fikri so'ralganda ularning aksariyati ya'ni, 86 foizi FO'O'BO xodimlari uchun o'quv kurslari kerak va foydali ekanligini ma'lum qilishgan. 12 % FO'O'BO xodimlariga o'quv kurslari kerak emas, sohaviy bilim va malakalar faqat ish jarayonida shakllanadi deb hisoblagan bo'lsa, 2 % o'quv kurslari haqida xabari yo'qligini ma'lum qilishgan.

Bundan tashqari yuqoridagi Nizomda fuqarolar yig'ini xodimlari 3 yilda kamida bir marta malaka oshirishlari belgilangan. Biroq fuqarolar yig'ini xodimlarining bu boradagi fikrlari boshqacha. YA'ni respondentlarning 50 foizi fuqarolar yig'ini xodimlari bir yilda kamida 1 marta malaka oshirishlari zarurligini bildirishgan.

XULOSA

Ilmiy materiallarni o'rganish va tahlil qilish, sohada amalga oshirilgan islohotlar, mahallaning qonunchilik bazasi va soha xodimlarining fikrlarini o'rganishlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan – Xorijiy tajribani puxta o'rganib, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va buning uchun avvalo tizimga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish ishlari zudlik bilan amalga oshirish kerak.

Ikkinchidan – tizimda faoliyai yurituvchi xodimlarni malakasini oshirishda zamonaviy menejment va boshqaruv, qaror qabul qilish, kreativ fikrlashga oid kompitensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mavzularni ham kiritish talab etiladi.

Uchinchidan - tizimni takomillashtirishda xorijiy va milliy tajribani o'rganish, fuqarolar yig'ini xodimlarining malakasini oshirishda zamonaviy axborot telekommunikatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda masofaviy malaka oshirishga oid munosabatlarni tartibga solish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan – FO'O'BO xodimlarining malaka oshirishdan o'tganligi ularining KPI (samaradorlikning muhim ko'rsatgichlari)ga ham ta'sir etish mexanizmini joriy etish orqali samaraga erishish mumkun.